

# Journal of New Century Innovations

VOLUME

43

ISSUE-4



Journal of new  
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical  
sciences

Social sciences  
and humanities

Engineering and  
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



Google  
Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



**JOURNAL OF NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**VOLUME - 43 | ISSUE - 4**

**December - 2023**



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI**

*Ibadullayeva Shaxnoza Ibadullayevna*

*TMC instituti, "Amaliy matematika va informatika"*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**ABSTRACT**

The article discusses the importance of organizing extracurricular activities in order to attract primary school students to the subject of mathematics, to better master the teaching materials and to develop their skills.

**Keywords:** Elementary school, students, math, extracurricular activities, students' knowledge and practical skills, logical thinking.

**KIRISH**

Matematikadan sinfdan tashqari ish deyilganda o`quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog`liq bo`lgan material asosida ixtiyoriylik printsiptiga asoslangan mashg`ulotlar tushuniladi.

Sinfdan tashqari ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`quvchilarning bilimlari va amaliy ko`nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirish;

- o`quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

- matematikaga bo`lgan qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish;

- talabchanlik, irodani, mehnatga munosabatni, mustaqillikni, uyushqoqlikni va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

1. Matematik o`n minutliklar, soatlar.
2. Matematika to`garaklari.
3. Matematik konkurs va olimpiadalar.
4. Qiziqarli matematika kechalari va viktorinalar.
5. Matematik matbuot.
6. Matematik ekskursiya.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O`z mazmuni bo`icha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o`quvchilarning kuchiga mos bolishi kerak;

2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o`quvchilarni jalb qilishi, ya'ni

qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan malumotlari etishmaydigan yoki berilgan malumotlari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy malumotlar berish va boshqalar kiradi. ; Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, xavaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi. 3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkabligidadir.

Shuni ta'kidlash lozimki, individual va guruhli mashg'ulotlar tizimli ravishda o'tkazilmasligi, aksincha, asosiy ish sinfda bajarilishi kerak. Sinfdan tashqari ish sinfdagi dars shakliga nisbatan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha u davlat dasturi bilan cheklanmagan, matematik material o'quvchilarning bilimlari va malakalariga mos ravishda berilishi kerak.

2. Boshlang'ich sinflarda bolalarning matematikaga nisbatan to'plangan turg'un qiziqishlari haqida hali gapirib bo'lmaydi.

3. Topqirlik, ziyraklik, tez hisoblashlar, yechishning samarali usullaridan foydalanish va rag'batlantirilishi kerak.

4. Daralar 45 minutga rejalashtirilgan holda sinfdan tashqari mash- g'ulotlar mazmuniga va o'tkazilish shakllariga qarab 10-12 minutga ham, bir soatga ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar shakl va turlari (qiziqarli matematika soatlari, to'garaklar, viktorinalar va h.k.) qarab mazmunining turli tumanligi bilan xarakterlanadi.

## NATIJALAR

Matematika minutliklarida, topshiriqlarga qiziqish uyg'otish va quvvatlash uchun bu topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o'xshash

bo'Imasligi kerak.

Mashg'ulot o'tkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masalalar tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material boiib xizmat qiladi.

Matematik to'garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko'p tarqalgan turidan biri. Uning asosiy vazifasi - matematikaga alohida qiziqishi bor o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematik to'garak ishi qiziqarli matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi:

Matematika to'garagiga o'quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Mustaqil ravishda ko'rgazmali qurollar (abaklar, ba'zi o'yiniar uchun misollar yozilgan kartochkalar va boshqalar) tayyorlaydilar, matematika kechalari o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'radilar va hokazo.

### **MUHOKAMA**

Darhaqiqat, o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari ham uzoq o'tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlarida insonlarni odobli, ma'naviyati yuksak, komil, mehnatsevar, vatanparvar bo'lib tarbiyalanishiga yangi g'oya va ta'limotlarni yaratganlar. Bular. Muso al-Xorazmiy (783-850), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037); Umar Hayyom (1048-1131); Nasriddin at-Tusiy (1201-1274); Mirzo Ulug'bek (1394-1449), G'iyosiddin al-Koshiy; Ali Qushchi (1402-1474) va boshqalarning bizga qoldirgan boy ilmiy ma'naviy meroslari fikrimizga asos bo'ladi. Bu allomalarimizning asarlarida bolalarning o'qishi, mehnati, odobi va bu ishda muallimlarning vazifalariga katta e'tibor berilgan.

Jumladan, Nasriddin at-Tusiy fikri bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarni aqlzakovatiga ta'sir qilishi uchun o'quvchilar ishonchini qozonish va qalbidan joy olish mas'uliyatini his qilishi lozim.

Abu Nasr Forobiy o'qituvchi faoliyatida yoshlarning axloqiy me'yorlari, amaliy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilganligi asosiy vazifalardan biri ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino fikricha, tarixiy manbalarni bilish olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm va narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishi shaxs faoliyatida muhim hisoblanishini ta'kidlab o'tadi. Abu Rayhon Beruniy pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va o'rni, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikri

Dunyoda okeanlar suvida 13300 min tonnagacha kumush bor.

Matematika burchagini tashkil qilishni o'quvchilar va ularning ota-onalari faoli yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ekskursiya o'tkazishdan maqsad nimaligi bolalarga tushunarli bo'lishi nihoyatda muhimdir, shunday billganda bolalar oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib oladilar.

## XULOSA

Maktabning joylashgan o'rniga qarab bolalar bilan har xil ustaxonalarga, fabrikalarga, kombinatlarga, fermalarga, shirkat xo'jaligi va fermer xo'jaligi hamda boshqa joy larga ekskursiyalar o'tkaziladi. Quriish materialidan, mashinaiardan, ishchi kuchlaridan va boshqa narsalardan foydalanish haqida masalalar tuzish va yechish mumkin. Shunday masalalardan ba'zilarini keltiramiz:

1. Bir soatda ekskavator 4 m uzunlikda poydevor chuqurligini kavlaydi. Shunday ish unumi bilan u 7 soatda qancha chuqurlik ( ra) kovlaydi? :

2. Qurilishga yuk tashishda 4 ta avtomashina ishlamoqda. Ulam- ing har birida bitta haydovchi va ikkita yukchi ishlaydi. Material tashishda hammasi b lib qancha odam band? Quriish materiallaridan mehnat darslari uchun stendiar tayyorlashda foydalanish mumkin, bunda binolarning maketlarini tayyorlash ham mumkin.

## REFERENCES

1. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: «Sharq», 1997.
2. Jumayev M . Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
3. Jum ayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. - T.: «Ilm-Ziyo», 2003.
4. Bikbayeva N. U., Sidelnikova R. I., Adambekova G. A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. — T.: «O'qituvchi», 1996.
5. Жикалкина Т.К. Игровые и занимательные задания по математике- М. “Просвещение”, 1989.

O'ZBEKISTONDA CHET TILLARI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

*Baxromova Irodaxon Bobirxon qizi*  
*A.Avloniy nomidagi MTI magistranti*  
*E-mail: fantasy\_2016@inbox.ru*  
*Phone: +998931979416*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilgan chet til siyosati haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib, islohotlar va ularning bayoni yoritilgan. Islohotlarda belgilangan cora tadbirlarning amaliyotga qay darajada tadbir' etilgani hamda ijrosi bo'yicha ham tahlillar kiritilgan.

**Annotation:** This article provides a brief overview of the foreign language policy implemented in Uzbekistan, and highlights the reforms and their explanation. Analyzes are also included on the extent to which the measures specified in the reforms have been put into practice and their implementation.

### Kirish

Globalashuv- bu mamlakatlar orasida texnika va savdo orqali o'zaro aloqalar o'rnatishi va shuning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yaqinlashuv nazarda tutiladi. Globalashish jarayonining ilk namunasi sifatida tijoriy va madaniyat almashish uchun Xitoy, O'rta Osiyo va O'rta Yer dengizi mamlakatlarini jipslashtirgan Buyuk Ipak Yo'li ko'rsatiladi. Globalashuv jarayonining ikkinchi bosqichi 2000-yillardan buyon ingliz tili xalqaro aloqa tili sifatida dunyo sahnasiga chiqdi va dunyo davlatlari ta'lim tizimida Chet tili ta'lim sifatini oshirishni muhim darajaga ko'tardi. Eng ko'p ishlatiladigan xalqaro til sifatidagi maqomi va uning turli tillarda so'zlashadigan davlatlarning aloqa vositasi sifatida foydalanishga talab ingliz tilini mamlakat miqyosida ommalashishiga eng muhim sabablardan biridir. Bundan tashqari, ingliz tili ekstralinguistik va liguistik xususiyati bilan ham ham o'rganishga ham foydalanishga qulay til hisoblanadi<sup>1</sup>. Statistik ko'rsatgichlarga ko'ra dunyo aholisining qariyb 20% ingliz tilida so'zlashadi, dunyo mamakatlarining 60% ida esa ingliz tili eng ko'p o'qitiladi 40% davlatlarda rasmiy tillardan biri hisoblanadi<sup>2</sup>. Shuning uchun bo'lsa kerak, 2023yil holatiga ko'ra internet sahifalarida eng ko'p foydalanilgan birinchi til sifatida ingliz tili 59%, ikkinchida esa rus tili 5,3% tashkil etyapti<sup>3</sup>.

Oxirgi chorak asr mobaynida jahonning bir qator davlarlarida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishga bo'lgan talab yanada oshdi, til o'qitishni boshlang'ich sinflardan

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_tillar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tillar)

<sup>2</sup> <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>

<sup>3</sup> <https://www.statista.com/statistics/262946/most-common-languages-on-the-internet/>

o'qitish uchun jahon standartlari asosida milliy dastur ishlab chiqildi. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror doirasida yosh avlodga xorijiy tillarni o'rgatish tizimini sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda muhim dastur joriy etildi.

### **Asosiy qism**

O'zbekistonda o'zbek tili o'qitish, muloqot va rasmiy til hisoblanadi. Keyingi o'rinda rus tili o'zining millatararo muloqot tili sifatida mamlakatimizda keng tarqalgan. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda O'zbekistonda chet tili o'qitishning tarixiy rivojlanish jarayonini 3 bosqichga bo'linadi:

- I. 1924-1960-yillar
- II. 1961-1990-yillar
- III. 1991-hozirgacha bo'lgan davrlar

Ushbu davrlar mobaynida o'zbekistonda g'arb va sharq tillari o'qitish borasida ko'plab tajribalar amalga oshirildi, metodikalar ishlab chiqildi va darslik va dasturlar ustida ham yaxshilash va rivojlantirish ishlari bosqichma bosqich amalga oshirildi. Xususan, chet tillari o'qitish 1924-yildan SSSRda ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida O'zbekistondagi rus ta'lim muassasalarida boshlandi. Aynan chet tili metodistlari 1960-yillarda yetishib chiqib boshladi va bu o'z navbatida chet tili o'qitish uchun mamlakat miqyosida milliy darslik yaratishga erishildi. Darsliklar asosan grammatika o'qitish metodikasini o'z ichiga olgan xalos. XX asrning 70-yillariga kelib esa birinchi marta maktablar uchun milliy dastur ishlab chiqildi. Mustaqillik yillarigacha bir qator metodislar va tilshunoslar o'z ilmiy ishlari va tajribalari bilan chet tili rivojiga xissa qo'shdilar<sup>4</sup>.

Mustaqillikdan so'ng boshqa xorijiy tillarni o'qitishga keng islohotlar olib borila boshlandi. Ilmiy ishimizda aynan mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan va oshirilayotgan III-bosqich til islohotlari mazmuni, amaldagi holati va natijalarini tahlil qilishga qaratiladi. 1992-yildan boshlab ta'lim tizimida bo'lgan islohotlar bilan bir qatorda chet tillari o'qitish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan, "Milliy mutaxassislarni tayyorlashga", jahon andozalariga javob bera oladigan ta'lim dasturlari ishlab chiqishni amalga oshirdi. Eng muhim o'zgarish sifatida grammatika va tarjimaga asoslangan metoddan muloqotga asoslangan metodga o'tish bo'ldi. Iqtisodiy va siyosiy hamda ilm fanda yuqori natijalarga erishish va xalqaro maydonga chiqish mamlakatimizda chet tillari, xususan, ingliz tili ta'limini kuchaytirishni taqazo etdi. Shunday qilib, O'zbekistonda ingliz tilini ommaviy o'qitishga o'tish 2000-yillardan boshlangan desak adashmaymiz. Bunda asosiy urg'u nemis va fransuz tillari chet tili sifatida o'qitiladigan sinflarda ingliz tilini o'qitishga qaratilgan. Bunda ingliz tili asosiy chet tili sifatida viloyat va tuman markazlaridagi maktablarda beshinchi sinfdan

<sup>4</sup> [https://www.researchgate.net/publication/337414762\\_Historical\\_outline\\_of\\_FLT\\_in\\_Uzbekistan](https://www.researchgate.net/publication/337414762_Historical_outline_of_FLT_in_Uzbekistan)



boshlab o'qitilgan. O'qitish metodikasi hanuz sovet davridan amalda bo'lib kelgan grammatik tarjima metodlari asoratlari ko'zga tashlanib, 25 ta o'quvchidan ortiq sinflar ikki guruhga bo'lgan holda o'qitilgan. "O'zbekistonda ingliz tili o'qishda muloqotga asoslangan metodan dars jarayonlarida shlatilishdan ko'ra ko'proq konfrensiyalarda muhokama qilish uchun mavzu sifatidagina qo'llanilishi"<sup>5</sup> haqidagi fikrlar yangi samarali metodlar va dasturlar amalda qo'llashda oqsayotganini ko'rsatdi. Ingliz tilining jahonda nufuzi oshishi asnosida o'qitish tizimini takomillashtirish hamda ta'limning tashkiliy-metodologik masalalariga nisbatan oxirgi o'n yillikda e'tibor qaratish boshlandi. Bu boradagi ilk islohotlar 2012-yilgi "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" Prezident Qarori<sup>6</sup> bilan boshlandi. Unga binoan O'zbekistonda ilk bora ingliz tiliga oid bilimlarni baholashning milliy tizimiga asos solindi, ingliz tilini o'qitish hamda ommaviylashtirishda ommaviy axborot vositalari, jumladan televideniya dan foydalanish yo'lga qo'yildi hamda ingliz tiliga oid metodik majmua va darsliklarni xorijiy hamda mahalliy ekspertlar yordamida qayta tahrirlash, chekka hududlarda dars berayotgan ingliz tili o'qituvchilari maoshiga ustama qo'shib berish tartibi yo'lga qo'yildi. Mamlakatda ingliz tilini o'qitishda markaziy tadqiqot-metodik markaz vazifasini o'tashi ko'zlangan muassasaga bo'lgan ehtiyoj ko'zga tashlana boshladi: chet tilini ommaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish sohaga ixtisoslashgan o'qituvchilarni muntazam tayyorlash hamda o'qituvchilarga zaruriy metodik dastak bo'lishga qodir muassasa bo'lishini zaruriyatga aylantirgan edi. 2013-yil 23-maydagi "O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi" PQ-1971-sonli Prezident qarori O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetini "chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining respublika bazaviy ta'lim va ilmiy-metodik muassasasi"<sup>7</sup> etib belgiladi. Yuqoridagilarni ingliz tilini ommalashtirishga oid ilk islohotlar desak bo'ladi, islohotlar ingliz tilini o'qitish tizimini yo'lga qo'yishda ilk tajriba maktabi sifatida xizmat qilgan holda yoshlarda ingliz tiliga rag'batning oshishi, ingliz tili uchun metodik hamda tashkiliy bazaning yaratilishi yo'lida muhim xizmat qildi. Ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirishga oid islohotlar "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>8</sup> gi 2021-yil 19-maydagi Prezident Qarori bilan yangi bosqichga qadam qo'ydi. Unga ko'ra xorijiy til o'qituvchilari sonini oshirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarini oliy ta'lim muassasalariga birlashtirish, C1 darajasiga ega o'qituvchilar maoshiga 50 foiz miqdorda ustama joriy qilish, chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirishga xorijlik ekspertlarni jalb etish joriy etildi.<sup>8</sup> Ushbu qarorga asoslanib qabul qilingan Vazirlar

<sup>5</sup> Hasanova, D. (2007). Functional Allocations of English in Post-Soviet Uzbekistan; Pedagogical Implications for English Language Teachers. USA.

<sup>6</sup> <https://lex.uz/docs/-2126032>

<sup>7</sup> <https://lex.uz/docs/-2176173?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=10.09.2021&action=compare>

<sup>8</sup> <https://lex.uz/docs/-5426736>

Mahkamasining “Xorijiy tillarni o’rganishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarorida ingliz tilini o’qitishda internet tarmog’i orqali onlayn darslarni yo’lga qo’yish, xorijiy tillarni o’qitishga ixtisoslashgan maktablarga birlashtirilgan barcha oliy ta’lim muassasalarini tayanch oliy ta’lim muassasasi deya hisoblash, o’quvchilarga faqat til aspektlarinigina emas, endi til ko’niklamalari (tinglash, o’qib tushunish, yozish, so’zlashuv) ni ham samarali o’rgatish, davlat xususiy sherikchiligidagi ta’lim markazlarini yaratish, xorijiy tillarni o’qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti yo’lga qo’yildi<sup>9</sup>.

Ushbu islohotlar ingliz tilini o’qitish tizimi mamlakatda ingliz tilini o’qitishda grammatik tarjima metodikasini zamonaviy interfaol metodikalarga almashtirish jarayoniga oid tadqiqotlar olib borildi. 2018-yilda ingliz tili o’qituvchilari darslarni “interfaol metodlar”, jumladan, “chigil yozdi” mashqlari, sahna ko’rinishlari hamda tezkor javob kabi uslublardan foydalangan holda o’qitishga harakat qilardilar. Biroq, o’quvchilarning bilim darajasidagi tafovut ushbu uslublarni amalda qo’llashni murakkablashtirar edi. Adabiyotlarda ham chet tili bilim darajasidagi tafovut interfaol metodlardan foydalanishni murakkablashtirishi ko’p bora uchraydi<sup>10</sup>. Ushbu islohotlar ingliz tilini o’qitish tizimiga oid quyidagi 4 ta yo’nalish asosida olib borilganini ko’rishimiz mumkin:

I. **Moddiy-texnik:** lingafon xonalari, axborot texnologiyalarini jalb etish, ingliz tilini o’qitishda televideniya hamda internet orqali masofaviy ta’limdan foydalanish

II. **Metodik:** interfaol metodlarga asoslangan yangi metodik majmualarva ta’lim standartlarini ishlab chiqish, til aspektlaridan ko’ra til ko’nikmalariga ko’proq e’tibor berish.

III. **Tashkiliy:** Xorijiy til o’qituvchilarini tayyorlash uchun tayanch oliy ta’lim muassasalari, oldin Davlat test markazi, keyinroq esa xorijiy tillarni baholash agentligi tomonidan xorijiy tillarni baholash tizimining ishga tushirilishi, xorijiy tilga ixtisoslashgan maktablarga asos solinishi

IV. **Moliyaviy:** Davlat byudjetidan chekka hududlarda dars beruvchi yoki C1 sertifikatiga ega o’qituvchilarga ustama to’lanishi va hokazo.

Albatta, ushbu sa’y harakatlar o’z mevasini bermay qolmadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ingliz tilini o’qitish tizimi ancha takomilashgan hamda mustahkam tajribaga ega. Biroq, o’quvchilarning bilim darajasidagi tafovut ushbu uslublarni amalda qo’llashni murakkablashtirar edi. Adabiyotlarda ham chet tili bilim darajasidagi tafovut interfaol metodlardan foydalanishni murakkablashtirishi ko’p bora uchraydi<sup>11</sup>. Shuning uchun aytish joizki, ingliz tilini o’qitishni tashkillashtirish

<sup>9</sup> <https://lex.uz/docs/-5431845>

<sup>10</sup> [https://www.researchgate.net/publication/277971290\\_Teaching\\_Mixed-Level\\_Classes\\_with\\_a\\_Vygotskian\\_Perspective](https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_Mixed-Level_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective)

<sup>11</sup> [https://www.researchgate.net/publication/277971290\\_Teaching\\_Mixed-Level\\_Classes\\_with\\_a\\_Vygotskian\\_Perspective](https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_Mixed-Level_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective)

mexanizmlari ustida tadqiqotlar olib borish pedagogik tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Qarorida ham tillarni o'qitish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va amaliy islohotlar to'laqonli yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi hamda 2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi. Agentlik davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishi, xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etish, vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatini xorijiy tillarda amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uslubiyotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish, talab yuqori bo'lgan kamida o'nta xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash, xorijiy tillar o'qituvchilari uchun malaka talablari va baholash mezonlarini ishlab chiqadi hamda ularga malaka toifasini berish jarayonini ochiqlik tamoyili asosida tashkil etish, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro'yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarning darajalari o'rtasidagi muvofiqlikni tasdiqlash kabi chora-tadbirlar tayinlandi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yurtimizda xorijiy tillarni o'qitila

boshlanganiga 100-yil bo'libdi (1924-2024). Ingliz tiliga mamlakatimizda asosiy e'tibor qaratila boshlanganiga esa taxminan chorak asr deb hisoblasak, bu davr oralig'ida aholimizning xorijiy til savodxonligi sezilarli ko'rsatgichlarga ega bo'ldi. Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish bo'yicha yetakchi mamlakat hisoblangan Finlandiyada ham bu darajaga chiqish uchun yarim asrlik islohotlar va o'zgarish natijasi deyish mumkin (1970-2023). Shuningdek, Ingliz tilini o'qitish tizimining rivojlanishi mamlakatimizda ko'p yillik islohotlar jarayonining mahsuli hisoblanadi. Metodik nuqtayi nazardan ushbu jarayon an'anaviy grammatik-tarjima metodikasidan interfaol metodikalarga o'tish bilan xarakterlanadigan bo'lsa, tashkiliy-metodik jihatdan xalqaro til sertifikatlariga ega pedagoglarni o'qitish faoliyatiga jalb qilish, xorijiy ekspertlar ishtirokida ingliz tili o'quv predmetlarini ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish, ingliz tilini o'qitish tadqiqotlari uchun metodik "hab" sifatida xizmat qiluvchi muassasalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi. Shu bilan birga qayd etish joizki, garchi ingliz tilini o'qitish nodavlat xususiy, xalqaro hamda prezident maktablarida o'z samarasini namoyon etayotgan bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar orasida ingliz tili ko'nikmalarining yalpi rivojlantirish masalasi – hanuz o'z yechimini kutayotgan masala bo'lib qolmoqda. Buni ijobiy hal qilish uchun ingliz tilini o'qitishning yangicha mexanizmlarini umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida tatbiq etish borasidagi tadqiqotlarga ehtiyoj katta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://www.researchgate.net/publication/337414762\\_Historical\\_outline\\_of\\_FLT\\_in\\_Uzbekistan](https://www.researchgate.net/publication/337414762_Historical_outline_of_FLT_in_Uzbekistan)
2. Hasanova, D. (2007). Functional Allocations of English in Post-Soviet Uzbekistan; Pedagogical Implications for English Language Teachers. USA.
3. <https://lex.uz/docs/-2126032>
4. <https://lex.uz/docs/-2176173?ONDATE=09.11.2021&ONDATE2=10>.
5. <https://lex.uz/docs/-5426736>
6. <https://lex.uz/docs/-5431845>
7. [https://www.researchgate.net/publication/277971290\\_Teaching\\_MixedLevel\\_Classes\\_with\\_a\\_Vygotskian\\_Perspective](https://www.researchgate.net/publication/277971290_Teaching_MixedLevel_Classes_with_a_Vygotskian_Perspective)
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro\\_tillar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tillar)
9. <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>
10. <https://www.statista.com/statistics/262946/most-common-languages-on-the-internet/>

## O‘G‘UZ LAHJASIDA POLISEMIYA HODISASINING TASNIFI

*Sa’dullayeva Mohira Sobirovna**Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shevalarga umumiy tasnif berilib, ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, polisemiya tushunchasi uning o‘g‘uz lahjasida qanday shaklda kelishi haqida nazariy ma’lumotlar keltirilib, misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lahja, polisemiya, leksik elementlar, sheva, ko‘p ma’nodlilik.

O‘zbek shevalari o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada qipchoq, qarluq lahjalari bilan bir qatorda o‘rganilib kelinayotgan o‘g‘uz lahjasi va unda kuzatiladigan polisemiya hodisasi haqida ma’lumot berib o‘tamiz. Shuni aytish joizki, shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Xususan, adabiy tilda allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan yoki ma’lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan. Ularni tahlilga tortish va o‘rganish darajasi anchayin ortib bormoqda. Buning uchun albatta nazariy bilimlarga tayanish va amalda ham shu lahjada so‘zlovchi hudud aholisi bilan jonli muloqot orqali amaliyot olib boorish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizning turli hududlarida o‘g‘uz etnik guruhiga aloqador bo‘lgan aholi istiqomat qiladi. O‘zbek tilining ushbu lahjasi Xorazm viloyati va boshqa hududlarda keng tarqalgan. Nafaqat o‘zbek olimlari, balki chet el olimlari ham turli lahjalarda so‘zlashuvchi til vakillarini hududlarini juda keng o‘rganib, xaritalashtirishgan.

O‘g‘uz shevalari haqida Vamberi Ozarbayjonliklarning ta’siri deb tushuntiradi. Ba’zi o‘rinlarda o‘z tasnifida Ye.D.Polivanov o‘g‘uz shevalarini turkmanlashgan, qipchoq shevalarini qozoqlashgan deb tushuntiradi. Prof. M.Melioranskiy jonli shevalarni o‘rganish eng qadimgi yodnomalarni ham to‘g‘ri o‘qishga va uqishga juda katta yordam beradi va bu borada bebaho material yetkazib beruvchi nodir manba ekanligini ta’kidlaydi. Bunday muhim fikrlar bizning ishimizda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashga, aniq xulosalarga kelishga katta xizmat qiladi.

Har qanday til qurilishida bo‘lganidek, shevalarda ham ko‘pma’nodlilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari uchraydi. Shevalarning shakl va ma’no munosabatlari yuzasidan rus olimlari P.I.Avenesov, L.P.Jukovskiy, V.I.Karpov kabi olimlar tadqiqotlar olib brogan. Shuningdek, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, S.Isamuhamedova, M.Rahmatullayeva, A.Doniyorov kabi o‘zbek olimlarining ham izlanishlari va xulosalari mavjud.

Tilshunoslikda ma’lumki, polisemiya hodisasi murakkab va dolzarb

mavzulardan biridir. Chunki unda ma'noning mazmunini izlash uchun turli obyektlarga murojaat qilishga, lug'atlar bilan ishlashga va eng asosiysi omonimlardan farqlashga diqqat qaratiladi. Qayd etilgan mavzuga XX asrning 60-yillarida e'tibor qaratila boshlandi. Ma'lumki, ko'p ma'nolilik hodisasi polisemantizm hisoblanadi.

Polisemiyalar o'zaro aloqa jarayonida so'z ma'nolarini belgilaydigan so'zlarning tilda yashashini ta'minlaydigan vositadir. Polisemiyalarning ma'no tarmoqlarini adabiy tilda matnda bajarsa, og'zaki nutqda so'zlashuv jarayonini bajaradi. Polisemantik so'zlarda leksik birliklar ma'no-mazmunini o'zaro aloqadorlik tashkil etadi.

F.A.Abdullayevning "O'zbek tilining Xorazm shevalari" asaridagi lug'at tarkibida kelgan polisemiyalarning bir nechtasini tahlilga tortganimizda quyidagilar namoyon bo'ladi:

"Айақлашмақ" xuddi shu shaklda uchraydi. Bu so'zga barcha o'zbek tilida so'zlashuvchi til vakillari tushunmasligi yoki turlicha izoh berishi tabiiy. Muallif esa bu so'zni polisemantik deya lug'at tarkibiga kiritib, uni quyidagilar orqali izohlaydi:

1. Оёқ узатмоқ, оёқни чўзиб ётмоқ; 2. Икки кимса бир-бирига оёқ узатишиб ётмоқ; 3. Бўлишмоқ, тақсим қилмоқ.

Keltirilgan ma'nolardan so'ng badiiy tilda so'zlashuvchilar uchun anchayin tasavvur paydo bo'lgani aniq.

"Бәдәвләт" so'ziga diqqatimizni qaratsak, bu yerda birinchi bo'lib lotin va krill alifbosida uchramaydigan "ə" grafikasi e'tiborimizni tortadi. Albatta, talaffuz va yozuv me'yorlari asosida kitobda keltirilgan shakl bo'yicha tasnif qilinayotgan har bir so'z asliga muvofiq ya'ni manbada keltirilgandek berilmoqda. Demak, ushbu so'zning izohlari quyidagicha va bu ham polisemiya na'munasi:

1. камбағал, фақир, бечора; 2. бефаҳм, фаросатсз; 3. Аравада аравакаш ўтирадиган жой.

Navbatdagi so'z "Бастъқрмақ", bunda adabiy tilimizga yaqinlik bor, hatto o'zbek tili vakillarining deyarli barchasi uchun tushunarli, ammo uning polisemantik so'z ekanligi va uning qanday ma'nolari borligini quyida birga tahlil qilamiz:

1. Бостирмоқ; 2. Бирор ишни орқага сурмоқ, пайсалга солмоқ.

Har bir tadqiq qilinadigan shevalardagi so'zlarning leksik semantikligi, shuningdek, ko'p ma'noli so'zlar ham turli yo'llar bilan yuzaga keladi. Bu holat yuzasidan shevashunos S.Rahimov fikr bildiradi. Voqealidagi predmet xususiyatini, nomini boshqasiga ko'chirish, o'tkazish orqali sodir bo'lishini aytib, bir necha misollar orqali yoritgan.

Masalan, Yodgor seni o'ldirishga ko'p dimladi.

Bu yerda keltirilgan "dimlamoq" so'zi ko'ndirmoqchi bo'lmoq, avramoq, aldamoq kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

Ko'p ma'noli so'zlar shevada boshqa-boshqa hududlarda qo'llanganda har xil

semalarni anglatadi. Lekin shuni unutmashimiz lozimki, polisemiya hodisasi o‘zaro bir turkum doirasida kuzatilishini inobatga olgan holda polisemantik so‘zlarda ma’no jihatdan o‘zaro aloqadorlik sezilib turadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Raimnazarova N.X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. – Termiz-2022.
2. Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalari korpus tadqiqi. – Termiz-2022.
3. Abdullayev F.A. O‘zbek tilining xorazm shevalari. – Toshkent-1961.
4. Nurmuhammedova A.O. Surxandaryo shevalarining lingvistik xususiyatlari. Dissertatsiya. – Termiz-2023.

YANGI O'ZBEKISTONDA XALQARO BAG'RIKENGLIK TAMOYILI

*Inomjonov Husniddin Islomjonovich*

*Namangan davlat universiteti*

*Tarix yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:**

Ilmiy maqolada xalqimizning qadimiy qadriyatlaridan bo'lgan millatlar o'rtasidagi totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlash uchun so'nggi yillarda berilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro darajada yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbus haqida.

**Tayanch so'zlar:** millatlararo totuvlik, konfessiya, diniy bag'rikenglik, Do'stlik bog'i, "Harakatlar strategiyasi", Xalqlar do'stligi kuni, BMT

*Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan.*

*Sh.M. Mirziyoyev*

Yangi O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirish hamda dunyo hamjamiyatida o'zining munosib mustahkam o'rniga ega bo'lishi uchun mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, diniy va boshqa ko'plab yo'nalishlarda islohot loyihalari yurtimiz hayotiga tatbiq etilmoqda. O'z navbatida yuksak qadriyatlarimizdan bo'lgan millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyilini mustahkamlash uchun o'ziga xos alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi globalashuv jarayonida jamiyatda bag'rikenglik siyosatini ta'minlash jahon hamjamiyati oldida turgan muhim vazifaga aylangan. YUNESKO tashkiloti tomonidan 1995-yil 16-noyabrda "Bag'rikenglik tamoyillari" deklaratsiyasi qabul qilingani ham ushbu masala naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining qaroriga binoan 1997-yildan boshlab 16-noyabr Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanadi.

Bugungi kunda dunyoda 200 dan ortiq davlatlar mavjud. Bu davlatlarda ikki mingdan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Dunyo davlatlari orasida monoetnik va polietnik, ya'ni bir millatli hamda ko'p millatli davlatlar mavjud bo'lib, yurtimiz O'zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Statistika e'tibor qaratadigan bo'lsak mamlakatimizda 1897-yilda 70 ta millat vakili, 1927-yilda 90 ta millat vakili, 1959-yilda 113 ta millat vakili yashagan bo'lsa, hozirgi kunda



136 ta millat vakili istiqomat qilmoqda. Bundan tashqari bugungi kunda yurtimizda 140 dan ortiq milliy madaniy markaz, 16 ta diniy konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari “Agar O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir milliy madaniy markaz faollari o‘zlarining tarixiy vatanlari bilan madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlarni yanada faol rivojlantiradigan bo‘lsa, o‘ylaymanki, maqsadga muvofiq bo‘ladi”<sup>1</sup> deb ta‘kidlagan edilar. Ona yurtimizda har bir din vakillarini hurmat qilib ularga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratilmoqda va erkinlik berilmoqda. Mamlakatimizdagi turli xil millat va elatlarning do‘stligini yanada mustahkamlash uchun alohida e‘tibor berilmoqda. Yurtboshimizning taklif hamda tashabbuslari bilan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o‘zining ko‘plab tadbirlarini o‘tkazib kelayotgan bog‘ni “Do‘stlik bog‘i” deb nomlandi. Yurtimizdagi turli millat va elat hamda din vakillarining tinch-totuv va inoqlikda hayot kechirishi yurtboshimiz hamda hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hattoki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga dunyodagi yetakchi davlat hamda tashkilot vakillari ham yuksak baho berishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylanganidan so‘ng esa millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka e‘tibor yanada kuchaydi. Yurtboshimiz o‘z ma‘ruzalarida “Aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularning qonuniy talablari, so‘rov va takliflarini amalga oshirish aniq choralar ko‘rishni men o‘zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa deb bilaman”<sup>2</sup> deb ta‘kidlagan edilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” loyihasi qabul qilingan edi. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” islohotlar loyihasining 5-bandi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” deb nomlangan edi. “Harakatlar strategiyasi” dan ko‘rinib turibdiki, respublikamizni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishlaridan birida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka urg‘u berilmoqda. Bu ham albatta, xalqimizning qadriyatlarini mustahkamlash, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolarimiz murojaatlariga munosib tarzda e‘tibor qaratishdir. Bundan tashqari muhtaram yurtboshimiz tomonidan 2019-yil 15-noyabr kuni “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” nomli 5876-sonli Prezident Farmonining qabul qilinishi ham ushbu sohaga berilayotgan e‘tiborning yana bir namunasi hisoblanadi. Ushbu farmon ijrosi doirasida mamlakatimizda har yili “Bag‘rikenglik haftaligi” tashkil

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.,2017.- B. 300.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2016.-B. 17.

etiladi. “Bag’rikenglik haftalgi”ni o’tkazishdan maqsad jamiyatimizda do’stlik va bag’rikenglik muhitini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini rivojlantirishdan iborat. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 30-iyul mamlakatimizda “Xalqlar do’stligi kuni” sifatida nishonlana boshlandi. Bu ham albatta vatanimiz hududida istiqomat qilayotgan ko’plab millat va elatlarni yanada yaqinlashtirish hamda ular o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash maqsad qilindi.

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatda bag’rikenglik siyosatini ta’minlash jahon hamjamiyati oldida turgan muhim vazifaga aylangan. Muhtaram yurtboshimiz nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikdagi o’zgarishlarga o’zlarining munosib hissalarini qo’shmoqdalar. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag’rikenglik va o’zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo’l qo’ymaslikka ko’maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani<sup>3</sup> taklif etishi hamda ushbu muhim rezolyutsiyaning 2018-yil 12-dekabrda 73-sessiyada BMT ga a’zo ko’plab davlatlar tomonidan ma’qullanishi va bu muhim xalqaro hujjatni qabul qilinishi nafaqat bizning xalqimiz, balki butun dunyo xalqlari uchun o’ziga xos yangilik bo’ldi. 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo’lib o’tgan saylovlarida O’zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMT ning Inson huquqlari bo’yicha kengashi a’ziligiga uch yil muddatga 2021-2023-yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMT ga a’zo 193 ta davlatdan 169 ta davlat ovoz berdi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat’i nazar inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, shu jumladan millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e’tirofi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bu sohalardagi amalga oshirilgan o’ziga xos tashabbuslar mustaqil davlatimizni naqadar millatparvar va tinchliksevar xalq ekanini isbotlamoqda hamda dunyo hamjamiyatida o’zimizning munosib o’rnimiz borligini bildirib qo’ymoqda.

Yangi O’zbekistonning 2022-2026-yillarga mo’ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” ning 5-bandi Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlandi. Ushbu bandning maqsadlaridan biri jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag’rikenglik muhitini mustahkamlash deb nom oldi. Yangi O’zbekistonni barpo qilishda bag’rikenglik tamoyiliga amal qilgan holda insonlarning huquq va erkinlarini hurmat qilish hamda ko’p millatli yurtimiz aholisining o’zaro hamjihatlida farovon hayot kechirishi uchun barcha

<sup>3</sup> rezolyutsiya (lot. resolutio — qaror) — 1) yig’ilish, konferensiya va b. da qabul qilinadigan qaror

shart-sharoitlarni yaratib berish “Taraqqiyot strategiyasi” ning bir qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak so’nggi yillar yurtimiz hayotidagi barcha sohalarda o’zgarishlar bo’lmoqda. Mamlakatimizda so’nggi 4 yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu qabul qilingan qonun hujjatlari va qarorlar mamlakatimiz fuqarolarining xohish-iroda hamda manfaatlarini o’zida mujassam etgan muhim o’zgarishlar bo’ldi. Muhtaram yurtboshimizning so’zlari bilan aytadigan bo’lsak: “O’zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik sohasida o’z an’alariga doimo sodiq bo’lib, bu yo’ldan hech qachon og’ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o’rtasida o’zaro hurmat, do’stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko’z qorachig’idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”. Bir so’z bilan aytganda mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik sohasida ijobiy va o’zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O’zbekiston”, 2016. – 59 b.
2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. –T.: “O’zbekiston”, 2017.-107 b.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. –T.: “O’zbekiston”, 2017. – 592 b.

#### **Internet saytlari:**

1. <https://lex.uz>
2. <https://ziyonet.uz>
3. <https://old.muslim.uz>
4. <https://religions.uz>

**PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING ZAMONAVIY  
PROFESSIONAL SPORTDA TUTGAN ORNI**

*Sarvinoz Eshmatova Mahkamvoyevna*

*Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya yonalishi  
2-bosqich magistratura talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Jamiyatda soglom turmush tarzini shakllantirish, ahvoli salomatligini mustahkamlash, jismonan soglom va maanan boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan jiddiy shugullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berishga erishish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Soglom avlodni voyaga yetkazishda eng asosiy vositalardan biri bu sportdir. Sport musobaqalarida ishtirok etish uchun, sportchilarda texnikaviy elementlarni to'g'ri bajarish, shuning bilan birga yaxshi natija korsatish uchun sportchi psixologik jihatdan ham mukammal tayyorgarlikka ega bolishi zarur. Shundagina targibot sifatli bolishi aniq.

**Kalit so'zlar:** *psixologik barqarorlik, ruhiy ishonchlilik, ichki havotir, tashqi havotirlanish, aqliy ishonchlilik, psixotexnologiyalar, kompetensiya, jismoniy faollik, jismoniy madaniyat, sportchilar tayyorlash, jismoniy madaniyat sohasi, ilmiy –metodik ta'limot, mutaxassislar, kasbiy mahorat.*

**KIRISH**

Bugungi kunda psixologik bilimlar ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida, jumladan jismoniy tarbiya va sport sohalari uchun ham zaruriyatga aylanib borayotganini korishimiz mumkin. Hozirda respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini ommalashtirish, aholi ortasida soglom turmush tarzini targib qilish, shuningdek mamlakat sportchilarni xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini taminlash borasida bir qator izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa sport sohasidagi kadrlarga bolgan ehtiyojni ortishiga va ularni tayyorlashdagi yangi mutaxassisliklar ochishga zamin yaratmoqda. Sportchi-trener ortasidagi ozaro munosabatlarni, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishda hamda har bir sportchi shaxsining jamiyatdagi orni, uning turlicha ijtimoiy munosabatlarga kirishishini organuvchi qator ijtimoiy fanlar mavjud bolib, ularning orasida sport psixologiyasi alohida orin egallaydi.[1] Sport psixologiyasi sportchilarga oz jamoa azolari bilan ozaro to'g'ri munosabatlar ornatish yoli va vositalarini, sportchining jismoniy, ruhiy, taktik, texnik tayyorgarligini organadi. Sport psixologi esa har bir sport turini alohida hamda turli sport turi bilan shugullanayotgan sportchilarni psixologik tayyorgarliklarini amalga oshirish boyicha psixokorreksiya

va psixotreninglarni otkazadi va psixologik qollab-quvvatlash uchun dasturlar ishlab chiqadi. Sport psixologiyasi sohasining asosiy vazifasi – sportchilar bilan musobaqa oldi va musobaqa jarayonida paydo boladigan emotsional bezovtalanish, stress holatlarini yengib otish togrisida suhbatlar olib borish hamda maslahatlar berib, sportchiga vahimaga berilmasdan musobaqada galaba qozonish yol-yoriqlarini korsatadi.[2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Psixologiya sohasida sportchilarni ruhiy barqarorligini taminlovchi psixotexnologiyalar jahon psixologlari tomonidan keng ilmiy tadqiqotlar doirasida organilgan. Jumladan, Malkin V. R. , Lange N. N, R. Dekart, Avdeev V.V , G. Lottse, T. Sien, R. Ribo, A. R. Luriya, P. Y.A. Galperin, Y.E. B. Pirogova. A. P. Gazova G. S. Bakradze A.A Uxtomskiy, B.M. Teplov, V.D. Nebilitsin, D. N. Uznadze, P. P. Blonskiy, Ilin E.P, A. N. Leontev, S. L. Rubinshteyn kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixologiya fanlari doktori, V.N Smolentseva - mustaqil rivojlanish uchun mavjud bolgan psixotexnikani taklif qiladi.[3]

Zamonaviy sport psixologiyasi sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda va uzoq mashgulot jarayoniga faol amaliy yordam korsatishga chaqiradi. Sport amaliyoti shuni korsatadiki, musobaqaning kuchayib borayotgan situatsion stress sharoitida, hatto malakali sportchilar orasida ham muvaffaqiyatsiz ishlashning sababi kopincha salbiy psixologik holatdir. Nevrotik simptomlarning paydo bolishi vaziyatning oziga xos talablari uchun zarur bolgan barcha funktsiyalarning mos kelishini va sportchining ozini ozi boshqarish uchun zarur konikmalarga ega emasligini taminlash uchun moljallangan tananing tartibga solish mexanizmlari buzilganligining aniq dalilidir. Sport musobaqalari - bu sportchining tayyorgarligini tekshirishning oziga xos turi bolib, mashgulot faoliyatida malum darajaga kotariladi.[4]

Sportchining oz tayyorgarligi va raqiblarining tayyorgarligini tahlil qilish asosida adekvat va haqiqatda erishilishi mumkin bolgan, yuqori baholangan natijalarga erishish rejalashtiriladi. Shunday qilib, u yoki bu start oldi holatining shakllanishi kop jihatdan sportchining muayyan musobaqaga tayyorligini oz-ozini baholashining natijasidir. Sportchining startga chiqayotganini kuzatar ekanmiz, kopincha uning barcha mushaklari “oynashi”, nafas olishi chuqur va erkin, yani jismonan optimal holatda ekanligi seziladi. Hissiy qozgalish darajasi yaqinlashib kelayotgan faoliyatga juda mos keladi. Goyo galaba qozonish uchun etarli! Aniq harakat dasturiga ega bolmagan sportchilar uchun nima koproq xosdir. Ular ozlarini turli yollar bilan namoyon etishlari mumkin, ammo shunga qaramay, ularning barchasida bitta umumiy narsa bor - hozirgi paytda ular oldida turgan aniq vazifani hal qilish uchun konsentratsiyaning etishmasligi. Kopincha, bunday ruhiy nomutanosiblik haddan tashqari hayajonli va befarq holatlar fonida sodir boladi.[5]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Chexiyalik psixolog V. Goshekning fikriga ko'ra, aqliy ishonchlilik birinchi navbatda sport natijalarining past vaziyat o'zgaruvchanligi (samarali ishlash) bilan tavsiflanadi. Yani sportchining ruhiy ishonchliligi bu musobaqaning eng muhim daqiqalaridagi qobiliyatdir (ko'pincha ishlash natijasini belgilaydi). Sportchining aqliy ishonchliligiga tasir etuvchi omillar to'g'risida . Aqliy ishonchlilikni shakllantirishga hissa qo'shadigan psixologik ko'rsatkichlar orasida o'zini o'zi boshqarish darajasi, diqqat va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati, shuningdek, ideamotor sozlash va ijroning to'g'riligiga ishonch bor. Ushbu omillar uzoq muddatli yukni ko'taradi, yani ular aqliy ishonchlilikni shakllantirishga hissa qo'shishi yoki qo'shmasligi mumkin. Aqliy ishonchni shakllantirishning o'ta muhim sharti - bu sportchining ruhiy ishonchliligiga vaziyatli, qisqa muddatli tasir ko'rsatadigan omillar.

Birinchi omil-bu umumiy jismoniy tayyorgarlik (fitness). Talimning etarli emasligi tez charchashga olib keladi, bu esa o'z navbatida irodaviylikni oshirishni talab qiladi motorli faollikni kerakli darajada ushlab turishga qaratilgan harakatlar, bu funktsional ortiqcha yuklarni keltirib chiqarishi mumkin talab qilinadigan ishlash darajasini saqlaydigan tana tizimlari.[6]

Natijada, qo'shimcha ruhiy stress, o'ta og'ir vaziyatlarda yuzaga keladigan raqobat bo'lishi mumkin ko'pincha organizmning funktsional tizimlarining buzilishiga va natijada sportchining butun faoliyatining yomonlashishiga olib keladi. Aqliy ishonchga bevosita tasir ko'rsatadigan ikkinchi omil - bu sportchining texnik tayyorgarligi darajasi. Darhaqiqat, qanday qilib sportchining ruhiy ishonchliligi haqida gapirish mumkin.

Haqiqat shundaki, odatda sportchi o'tgan natijalarni loyihalashtiradi, kelajakdagi raqobat uchun o'tgan raqobat ko'rsatkichlari muvaffaqiyatsiz bo'lsa yoki unchalik muvaffaqiyatli bo'lmasa, unda sportchi bunga amin bo'lmasligi mumkin.

Zamonaviy sportda ushbu muammo qanday hal qilinmoqda?

Avvalo, amaliyotchi-murabbiylar ushbu muammoni yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni yaratish, texnologiyalarni avtomatlashtirish orqali hal qilishga harakat qilmoqdalar. Bularning barchasi aqliy ishonchlilikni yaratishga hissa qo'shadigan zarur poydevorni yaratadi, lekin bazi holatlarda, avvalambor bu yerda katta irodaviy harakatlar talab etiladi (chidamlilik, kuch). Ammo muvaffaqiyat qayerda aniqlikka, diqqatni jamlashga bog'liq bo'lsa, o'z-o'zini boshqarish, yani birinchi navbatda natija aniqlanganda ishonch darajasi, o'zini o'zi boshqarish va boshqa psixologik shaxsiy xususiyatlar, hatto o'ta funktsional va texnik tayyorgarlik ham etarli bo'lmasligi mumkin.

Muvaffaqiyatga bo'lgan ishonch, avvalambor, haqiqatga asoslangan ishlash vazifasini belgilashda ularning imkoniyatlarini baholashda namoyon bo'ladi. Bu maqbul psixikaning paydo bo'lishiga hissa qo'shadi texnikaning samarali

qo'llanilishini taminlovchi eng muhim omil. Aqliy ishonchni shakllantirishga hissa qo'shadigan ikkinchi omil - bu harakatlarni bajarishda diqqatni maksimal darajaga ko'tarish va uzoq muddatli konsentratsiyalash qobiliyatida ifodalangan sportchining o'zini o'zi boshqarish darajasi. Ushbu omilning roli ishonch ko'rsatkichi kabi muhimdir.[7]

### XULOSA

Yoshlarning shaxs sifatida taraqqiy etishida, irodali, g'alabaga intiluvchan, epchil va barqaror bo'lib shakllanishida sportning ahamiyati katta. Sportchida musobaqa oldidan paydo bo'lgan salbiy emotsional holatlar musobaqa motivining beqarorligi va irodaviy jarayoni susayishiga olib keladi. Emotsional holatlar sportchi faoliyati, xulq-atvori ustidan boshqaruv funksiyasini amalga oshiradi. Emotsional holatlar, hodisalar, harakatlar sportchining tana a'zolari o'zgarishida o'z ifodasini topadi va ichki hissiy kechinmalarning tashqi alomatlarini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Zamonaviy sportni, ayniqsa sportda yuqori natijalarga erishishni kuchli jismoniy mashg'ulotlarsiz, shiddatli jismoniy kurashlarsiz, qaramaqarshiliklarsiz, doimiy omad va omadsizliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bularning oqibatida esa emotsional qo'zg'alish va stress paydo bo'ladi. Sportchilar yuqori natijalarga erishishga harakat qilishayotgan bir paytda bu stress holati ularning musobaqada qatnaishiga salbiy ta'sir etishi va musobaqa natijasining pasayishiga sabab bo'lishini o'rgandik.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2020 йил 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5924-son farmoni. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son farmoni.
3. В. Р. Малкин, Л. Н. Рогалева Психотехнологии в спорте : учеб.пособие;науч. ред. В. Н. Люберцев. – Екатеринбург.
4. Gapparov Z. G. Sport psixologiyasi. Jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik. -T.: Mehridaryo, 2011. 346 b.
5. Сопов В. Ф. Методы измерения психического состояния в спортивной деятельности / В. Ф. Сопов. - Самара, 2004.
6. Мельзиддинов, Р. "ЎЗБЕКИСТОН "СУПЕРЛИГАСИ" ФУТБОЛЧИЛАРИНИНГ ҲАРАКАТЛАНИШ ФАОЛЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИ БЎЙИЧА МАХСУС ТАЙЁРГАРЛИК ДАРАЖАСИ ТАҲЛИЛИ." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.3 (2022): 527-534.
7. Umarov, Xurshid. "About prognostic value of indicators of motor abilities in young gymnastes." Физическое воспитание, спорт и здоровье 5.5 (2021).

**PYTHON DASTURLASH MUHITIDAN FOYDALANIB  
EKONOMETRIKA MASALALARINI YECHISH**

*F.X. Ishkobilov*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ekonometrika oid masalalar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ekonometrikaning matematik masalalarini amaliyotda qo‘llash hamda hozir kundagi dolzarb masalalarni ishlab chiqish haqida jarayonlar keltirilgan. Bu maqolada ekonometrik masalalardan biri sifatida juft regressiya masalasi ko‘rib chiqib natijalari olingan.

**KIRISH**

Ekonometrika fani ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning ekonometrik modellarini tuzish, tuzilgan modellar yordamida iqtisodiy subyektlar holatini tahlil qilish va tahlil natijalari asosida optimal qarorlar qabul qilishni, tuzilgan modellarni turli xil mezonlar asosida tekshirish va ularni tadbiiq qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilishni o‘rganadi.

Mamlakatimizda banklarning kapitallashuvi va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish va bu jarayonlarda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro‘y berayotgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar tashqi iqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘zining aniq ifodasini topmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

D.E.Safarovaning “Ekonometrika va informatika fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalariga asoslab o‘qitish metodikasi” nomli maqolasida oliy ta‘lim professor-o‘qituvchilari tomonidan talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlararo integratsiyadan foydalanishning imkoniyatlari yoritib berilgan.

E.A.Gafarovaning “Primeneniye prikladnix programm pri obuchenii ekonometrisheskim dissiplinam” nomli ilmiy maqolasida ekonometrik modellashtirishga ixtisoslashgan amaliy dasturiy mahsulotlar (Statistica, SPSS, EViews, Stata, Gretl, Prognoz Platform, R, Excel) imkoniyatlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Maqolada ekonometrikaning asosiy va ilg‘or darajalarini o‘qitishda mazkur dasturiy mahsulotlardan oliy ta‘limida foydalanish imkoniyati va uning maqsadlarga erishish yo‘llari bilan baholangan.

**NATIJA VA MUHOKAZA**

Shuning uchun ekonometrika masalalarini o‘rganib chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash hozirda dolzarb ishlardan biridir. Ekonometrik masalalardan biri sifatida juft



regressiya masalasini ko'rib chiqamiz.

**Juft regressiya** – bu ikki o'zgaruvchi  $y$  va  $x$ -larning bog'lanish tenglamasini ifodalaydi:  $u = f(x)$ ,

bu erda  $y$  – bog'liq o'zgaruvchi (natijaviy belgi);

$x$ - bog'liq bo'lmagan (tushuntiruvchi) o'zgaruvchi (belgi – omil).

Regressiya chiziqli va chiziqsizlarga farqlanadi.

Chiziqli regressiya:  $u = a + bx + \varepsilon$  ko'rinishda bo'ladi.

Chiziqsiz regressiya ikki sinfga bo'linadi: tahlilga kiritilgan aniqlovchi o'zgaruvchilarga nisbatan chiziqli, ammo baholanayotgan parametrlar bo'yicha chiziqsiz regressiya.

Regressiya tenglamasini tuzish uning parametrlarini baholashga olib keladi. Parametrlari bo'yicha chiziqli bo'lgan regressiya tenglamasini baholashda eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi (MNK). Eng kichik kvadratlar usuli parametrlarning shunday baholarini olishga imkon beradiki, bunda natijaviy belgi( $y$ )ning haqiqiy qiymatlarining nazariy ( $\bar{y}_x$ ) qiymatlaridan farqining kvadratlari summasi minimal bo'ladi, ya'ni:

$$\sum (y - \bar{y}_x) \rightarrow \min.$$

Chiziqli va chiziqliga olib keltirish mumkin bo'lgan chiziqsiz tenglamalar uchun quyidagi sistema  $a$  va  $b$  ga nisbatan yechiladi.

$$\begin{cases} na + b \sum x = \sum y \\ a \sum x + b \sum x^2 = \sum yx \end{cases}$$

Topilgan  $a$  va  $b$  yechimlar yordamida  $y = ax+b$  chiziqni aniqlaymiz.

Quyidagi qiymatlar tabiiy o'sish yoki taraqqiyotni ko'rsatishi mumkin bo'lgan tendentsiyani namoyish qilish uchun mo'ljallangan (1-jadval):

1-jadval

x	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
y	3.5	4.1	4.8	5.3	6.1	6.5	7.2	7.8	8.4	9.1

Bu qiymatlar yordamida quyidagi  $y = 0.616 \cdot x + 2.893$  to'g'ri chiziq hosil bo'ladi. Eng kichik kvadratlar metodi yordamida quyidagi natijalar: grafik va xatoliklar jadvaliga ega bo'lamiz.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi funksiyalarni qiymatlarida kelib chiqqan holda Python dasturlash muhitida ekonometrik masalalardan biri sifatida ya'ni, juft regressiya masalasini dastur matnini va grafik tasvirini yaratib chiqdik. Bu funksiyani ishlab chiqishdan maqsad talabalar yoki foydalanuvchilar uchun qo'laylik yaratishdan iboratdir.


**Pythonda tuzilgan dastur matni:**

*import matplotlib.pyplot as plt*

```

import numpy as np
from sympy import symbols, solve
x = [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
y = [3.5, 4.1, 4.8, 5.3, 6.1, 6.5, 7.2, 7.8, 8.4, 9.1]
a = symbols('a')
b = symbols('b')
n = len(x)
S_b = 0
for i in range(n):
    S_b += y[i] - (a * x[i] + b)
S_b *= 2
S_a = 0
for i in range(n):
    S_a += (y[i] - (a * x[i] + b)) * x[i]
S_a *= 2
z = solve((S_b, S_a), (a, b))
f = lambda x: z[a] * x + z[b]
plt.plot(x, y, marker='o', color='b', label='y from table')
plt.plot(np.linspace(x[0], x[-1], 20), f(np.linspace(x[0], x[-1], 20)), 'r', label='y
= ax + b')
plt.legend()
plt.show()

```



*1-rasm. Yuqoridagi qiymatlarida kelib chiqqan holda  $y = ax + b$  funksiyasining grafigi.*

Yuqorida keltirilgan grafik tasvirini statistik natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

$x_i$	$y_i$	$\bar{y}_i$	$\Delta y_i$	$\delta y_i$
2	4.1	4.125	0.025	0.006
2.2	4.22	4.248	0.028	0.007
2.4	4.34	4.371	0.031	0.007
2.6	4.46	4.494	0.034	0.008
2.8	4.58	4.617	0.037	0.008
3	4.7	4.741	0.041	0.009
3.2	4.82	4.864	0.044	0.009
3.4	4.94	4.987	0.047	0.009
3.6	5.06	5.11	0.05	0.01
3.8	5.18	5.233	0.053	0.01
4	5.3	5.356	0.056	0.011

### FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Rasulev D., Nurullaeva Sh., Ro‘zmetova N., Muminova M. *Ekonometrika asoslari. O‘quv qo‘llanma.* –T.: Iqtisodiyot, 2019. – 248 bet.
2. Хеллман, Даг. *Стандартная библиотека Python 3: справочник с примерами*, 2-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2019. — 1376 с. : ил.
3. Ишқобилов, Ф. Х. "КОМПЬЮТЕР ИМИТАЦИОН МОДЕЛЛАР АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ВИРТУАЛ ЛАБОРАТОРИЯ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЎҚИТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА." *Academic research in educational sciences* 4.1 (2023): 215-221.
4. Ishqobilov F. X. et al. *ELEKTRON DARSLIK YARATISHDA SERIF WEBPLUS X8 DASTURI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH* //Интернаука. – 2018. – №. 24-3. – С. 50-52.
5. Ishkobilov F. X., Eshqobilov S. X. *UMUMTA’LIM MAKTAB O’QUVCHILARI UCHUN VIZUAL DASTURLASHNI O’QITISH METODOLOGIYASINING ASOSIY OMILLARI* //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 223-226.
6. Ишқобилов Ф. Х. *КОМПЬЮТЕР ИМИТАЦИОН МОДЕЛЛАРИ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЗООЛОГИЯ ФАНИ БЎЙИЧА БИЛИМЛАРИНИ ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ* //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 10 (107). – С. 57-63.
7. [РАЗРАБОТКА ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ ПО ТЕМУ «ИЗУЧЕНИЕ СТРОЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ГУБОК НА ПРИМЕРЕ ПРЕСНОВОДНОЙ БАДЯГИ». ТИП SPONGIA, КЛАСС DEMOSPONGIA, ОТРЯД SPONGILLIDAE, ПЕДСТАВИТЕЛЬ SPONGILLA](#) МХ Лутфиллаев, ЭА Абдуллаев, Ф Эшқобилов, Kiev, Ukraine Assistant Editor–Stepanenko OI, Doctor ..., 2021

8. Ishkobilov F.KH “Technology of creating a virtual laboratory of the structure and movements of euglenoids from biology on the base of computer simulation models” Eurasian Scientific Herald. Page. 12-16. Volume 17. February, 2023. ISSN: 2795-7365.

9. Д.Э.Сафарова “Эконометрика ва информатика фанларини замонавий педагогик технологияларига асослаб ўқитиш методикаси” Science and Innovation International Scientific Journal. 2022 № 3. ISSN: 2181-3337.

10. E.A.Gafarovaning “Primeneniye prikladnix programm pri obuchenii ekonometrisheskim dissiplinam”. Современные проблемы науки и образования. ISSN-2070-7428. 2014. № 6.

## ПАХТАЧИЛИК КУЛЬТИВАТОРИ УЧУН ҚАТҚАЛОҚНИ ЮМШАТАДИГАН ҒАЛТАКМОЛА

*Абдуалиев Нуриддин Ҳабибович<sup>1</sup>,  
Эгамов Нодирбек Муродиллаевич<sup>2</sup>*

*т.ф.ф.д., в.б. доцент<sup>1</sup>, катта ўқитувчиси<sup>2</sup>  
“ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий ресурсларни  
бошқариш институти<sup>1,2</sup>*

**Аннотация.** Мақолада пахта етиштирувчи хўжаликларда чигит униб чиққанидан сўнг қатқалоқ ҳосил бўлган майдонларни юмшатишни техник воситаси ва технологияси келтирилган. Бунинг учун мавжуд қатқалоқ юмшатадиган қурилмаларнинг конструкциялари таҳлил қилиниб, энг қулай конструктив ечимга эга юмшатувчи ғалтакмола билан жиҳозланган қатқалоқ юмшатадиган қурилма тавсия этилади. Ушбу қурилмадан фойдаланилганда қатқалоқни юмшатиш жараёни мавжудига нисбатан меҳнат сарфини 35 % гача камайтиради, иш унумини 2-3 баробарга ошириш имконини беради.

**Калит сўзлар:** қатқалоқ, юмшатадиган ғалтакмола, ғўза ниҳоллари, қатқалоқни юмшатиш даражаси, культиватор, тортишга қаршилиги, регрессия тенгламалари.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 июлдаги ПҚ-308-сон “Пахта ҳосилдорлигини, пахта етиштиришда илм ва инновацияларни жорий қилишнинг қўшимча ташкилий чора тадбирлар тўғрисида”ги қарориди пахта ҳосилдорлигини ошириш бўйича янги тизимни жорий қилиш, пахта етиштиришда илм ва инновацияларга асосланган уруғчилик, нав танлаш, ерга ишлов бериш, ўғитлаш, суғориш ишларини йўлга қўйиш орқали пахта тўқимачилик соҳасида экспорт ҳажмлари ва даромадни ошириш устивор вазифа этиб белгиланган. Бунда ҳудудларнинг тупроқ иқлим шароитига мос энг мақбул навларни ҳудудларда кўпайтириш ва экиш бўйича кластерлар билан иш олиб бориш, экилган пахта навларини ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароитида мос мақбул тарзда танлаш, шунингдек агротехник ишларни тўғри амалга ошириш назарда тутилган [1]. Ушбу вазифаларни амалга ошириш, жумладан қишлоқ хўжалиги экинларини парваришлаш ва маҳсулот етиштиришда ёғингарчиликдан кейин пайдо бўлган қатқалоқни юмшатадиган техник воситаларни техник ва технологик жиҳатдан модернизация қилиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Маълумки, Республикаимизнинг кўпгина вилоятларида баҳорги мавсумда чигит экиш мақбул вақт ҳисобланади. Чигит униб чиққанидан сўнг ҳамда

вегетация даврида қисқа муддатли ёғингарчиликларнинг бўлиши ва қуёш нурлари таъсирида тупроқ юзасини юқори ҳароратда қиздириши натижасида сувнинг буғланиши тупроқнинг деформацияси билан биргаликда содир бўлади ва юзада қатқалоқли қатламнинг ҳосил бўлишига олиб келади. Бу чигитни яхши униб чиқиши ҳамда ғўза ниҳолларининг ўсиб ривожланишини қийинлаштиради, айрим ҳолларда чигитни такроран экишга олиб келади. Ўз навбатида меҳнат сарфи ва кўшимча харажатларни келтириб чиқаради [2].

Шундан келиб чиққан ҳолда, ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатламни сифатли юмшатишда асосий эътибор қаратиш талаб этилади.

Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги амалиётида экин майдонларида қатқалоқ билан курашишнинг кенг тарқалган воситаси борона ёки қиррали ғалтакмола, чопиқ қилинадиган майдонда эса ротацион мотиға ҳисобланади. [3,4,5]. Шу билан бир қаторда ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни юмшатишда илмий асосланмаган қўлбола техника ва технологияларни қўллаш ҳам учраб туради. Бу ўз навбатида ғўза ниҳолларининг шикастланишига ва қатқалоқни сифатли юмшатишмаслигига сабаб бўлмоқда.

Ўз вақтида бир қатор мутахассислар томонидан қатқалоқ пайдо бўлишининг олдини олиш чоралари сифатида турли мульчаловчи материаллар (гўнг, торф, кум, майдаланган ўсимлик қолдиқлари, гумбрин, ниҳолни ҳимояловчи қоғоз ва ш.к.) ёрдамида тупроқ юзасини ҳимоя қатлами билан қоплаш, экин поясини қолдириш ва шу каби усуллар таклиф этилган [6]. Аммо булар бир қатор устунликларга эга бўлишига қарамадан, мульчаловчи материалнинг катта миқдорда талаб қилиниши сабабли жорий этилмаган. Шу сабабли одатда қатқалоқни механик усулда юмшатиш амалиётда кенг қўлланиб келинмоқда.

Ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни ўз вақтида юмшатиш пахта етиштириш агротехикасини сифатли бажарилишида асосий вазифалардан бири ҳисобланади.


Юқоридагиларни инобатга олиб, ғўза қатор ораларидаги қатқалоқни юмшатиш учун янги конструкцияга эга технология ва техник восита ишлаб чиқилди.

Назарий тадқиқотлар олий математика, классик ва деҳқончилик механикасига асосланган ҳолда, тажрибавий тадқиқотлар эса махсус яратилган лаборатория-дала қурилмасида ва “ТИҚХММИ” МТУ Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институтининг ўқув – илмий маркази далаларида апробациядан ўтган усуллар қўллаб ўтказилди [7,8]. Ғўза қаторлари ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни юмшатадиган ишчи органи сифатида кабарик кўринишдаги ғалтакмола бир неча вариантларда тайёрланди [9]. Ғалтакмолани қатқалоқ юмшатадиган қурилмага ўрнатиш мақсадида махсус конструкцияга эга

бўлган механизм лойиҳаланди ва унинг тажриба нусхаси тайёрланди [10]. Механизм ғалтакмолани қурилмага нисбатан вертикал текисликда ҳаракатланиш имконини беради.

1-расмда қатқалоқни юмшатадиган ғалтакмоланинг кўриниши ва ишчи қисмлари келтирилган.

Қўйилган масала универсал чопиқ трактори осмасига ўрнатишга мослашган қурилма тақиш мосламаси 1, культиватор рамаси 2 да бир-бирига нисбатан маълум масофада жойлашган туткич 4 лар ёрдамида маҳкамланган найзасимон панжа 3 лар ва унга вертикал текисликда ҳаракатланувчи юмшатадиган ғалтакмола 5 ҳамда қатор ораларига ишлов бериш мақсадида ўқёйсимон панжа 6 билан жиҳозланган қурилма орқали ечилади [11].



**1-расм. Қатқалоқ юмшатадиган ғалтакмоланинг кўриниши ва ишчи қисмлари**


Қатқалоқни юмшатадиган қурилма, ғалтакмола рамаси 7 ни ичига олади, рамага ғалтакмола ўқи 8 болтли бирикма 10 лар, втулка 9 лар эса ғалтакмола гардиш 11 ларига парчин михли бирикма 12 лар воситасида бириктирилади. Қатқалоқни юмшатадиган ғалтакмола олтибурчакли пўлат сим 13 лардан қавариқ кўринишда ясалган, бунда қавариқлик  $\beta$  бурчакни ташкил этади.

Қурилма бир ўтишда жами 5 та қатор ғўза ниҳоллари орасидаги қатқалоқни юмшатиб ишлов бериш имкониятига эга. Ғўза қатор ораларидаги қатқалоқни юмшатишга мўлжалланган ғалтакмолалар культиватор рамасига нисбатан  $\alpha$  бурчак остида жойлашган.

Қурилма қуйидаги тартибда ишлайди. Қурилма трактор ёрдамида қатор бўйлаб ҳаракатланганда найзасимон панжалар 3 қатқалоқ қатламини ёриб кетади, унинг орқасида маълум масофада ўрнатилган юмшатувчи ғалтакмола 5 айланма ҳаракати эвазига қатқалоқ кесакларини юмшатади. Натижада ғўза қатор ораларидаги қатқалоқ қатлами сифатли юмшатилиб ғўза ниҳолларининг бир маромда ривожланиши таъминланади [12](2-расм).

Ушбу қурилма учун Ўзбекистон Республикаси интеллектуал мулк

агентлигига талабнома расмийлаштириб топширилган (ҒАР 20220215).



2 –расм. Қурилма битта ишчи секциясининг умумий кўриниши

Юқорида баён этилган технологик жараён амалга оширилганда ғўза ниҳолларини такроран экишга олиб келмайди ва бунинг натижасида меҳнат сарфи ва ортиқча харажатлар тежаллади.

Юқорида яратилган қурилмадан фойдаланиб дала-тажриба тадқиқотлари ўтказилди. Тажриба натижаларига статик тартибда ишлов берилиб, иш органининг тортишга қаршилиги, ғўза ниҳолларининг шикастланиш даражаси ва қатқалоқни юмшатилиш даражаси каби мезонларни адекват тавсифловчи регрессия тенгламалари олинди [13].

Ушбу регрессия тенгламалари таҳлиллари шуни курсатадики, ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни юмшатадиган ғалтакмола қатқалоқни талаб даражасида юмшатилишини таъминлаши учун иш органининг тортишга қаршилиги 300 Н, ғўза ниҳолларининг шикастланиш даражаси 1,5 %, ҳамда қатқалоқни юмшатилиш даражаси 95 % бўлишлиги аниқланди.

Юқорида баён этилган қабарик кўринишдаги ғалтакмола иш органи орқали амалга оширилаётган қатқалоқни юмшатиш жараёни мавжуд иш органига нисбатан меҳнат сарфини 35 % гача камайтиради, иш унумини 2-3 баробарга ошириш имконини беради [14].

**Хулоса.** Юқоридагиларни инобатга олиб, ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни юмшатишга тавсия этилаётган ғалтакмола қўлланилганда агротехник талабга кўра қатқалоқни сифатли юмшатиш жараёни таъминланади. Тажриба тадқиқотлари натижасида мавжуд қатқалоқни юмшатадиган иш органи воситасида иш жараёни амалга оширилганда қатқалоқни юмшатилиш даражаси 87 % ни ташкил этган бўлса, тавсия этилаётган қурилма қўлланилгандан сўнг ушбу кўрсаткич 95 % ни ташкил этганлиги аниқланди.



Демак, ғўза қатор ораларида ҳосил бўлган қатқалоқни юмшатишда тавсия этилаётган юмшатадиган ғалтакмолали иш органи билан жиҳозланган қурилма қўлланилганда иқтисодий жиҳатдан самара бериши аниқланди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 июлдаги ПҚ-308 Пахта ҳосилдорлигини, пахта етиштиришда илм ва инновацияларни жорий қилишнинг кўшича ташкилий чора тадбирлар тўғрисидаги фармони. <https://lex.uz/uz/pdfs/6099443>
2. Каспиров А.И. Почвенная корка и борьба с ней. – Л.: 1951. – 91 с.
3. Листопад Г.Е. Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. – М.: *Агропромиздат*, 1986. – 688 с.
4. <http://www.prom-dt75.ru>
5. Сергиенко В.А. Технологические основы механизации обработки почвы в междурядьях хлопчатника. – Ташкент: Фан, 1978. – 112 с.
6. Гумбатов О.М. Новый способ получения дружных всходов хлопчатника в условиях тяжелых почв Ширвани. Автореф. дисс. ... канд. с.-х. наук. – Кировабад, 1971. – 23 с.
7. Абдуалиев, Н. Х. (2016). Обоснование параметров устройства для осуществления продольного пала в междурядьях хлопчатника. *Магистерская диссертация.*–2016.- 65 с.
8. Kh, O. K., Murodov, N. M., Murtazoev, A. N., & Kh, A. N. (2019). Found parameters of the construction of longitudinal pawl-creating device between cotton rows. *International journal of advanced research in science, engineering and technology (IJARSET)*, 6(1), 7885-7887.
9. Habibovich, a. n. (2022). determination of the cross-sectional area of the threshold between rows of cotton. *web of scientist: international scientific research journal*, 3(3), 197-201.
10. Murodov, N., Abdualiev, N., & Murtazoev, A. (2020, July). Device for forming longitudinal thresholds among rows of improved porosity. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 883, No. 1, p. 012180). IOP Publishing.
11. Эгамов Н.М. Выбор оптимальных поверхностей орошаемых земель // *Iscience modern scientific challenges and trends issue 3(37) part 2 april 2021*.
12. Murtazoev, A. N., & Shodiyeva, S. U. (2021, November). Justification of the parameters of the blade working body of the plowshare that forms a longitudinal bollard among the rows of cotton. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2070, No. 1, p. 012026). IOP Publishing.
13. Эгамов, Н. М. (2022). Ғўза қатор ораларида қатқалоқнинг ҳосил бўлиши ва унинг салбий оқибатлари. *Modern scientific challenges and trends*, 11.
14. Abdualiev, N. K., & Egamov, N. M. (2022, August). Harness softening roller for cotton cultivators. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1076, No. 1, p. 012028). IOP Publishing.

**ОБЩАЯ ТЕОРИЯ ВЫЧИСЛЕНИЯ ЦИФР ЧИСЛА, КОТОРОЕ  
ПОЛУЧАЕТСЯ, ЕСЛИ МЫ ВОЗВОДИМ ЧИСЛО 7 ДО  
ПРОИЗВОЛЬНОГО n-ГО ПОРЯДКА**

*Жумаев Бекзод Зокирович, [bekzodjumayev980314@gmail.com](mailto:bekzodjumayev980314@gmail.com)*

*Жураев Ильхом Рузибоевич, [ilkhom.jurayev.03@mail.ru](mailto:ilkhom.jurayev.03@mail.ru)*

*Преподаватель кафедры «Математика и  
методика ее преподавания» ТерДПИ*

*Студент по направлению Математика и  
информатика ТерДПИ*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об общей теории, определяющей количество цифр полученного числа, когда мы возводим число 7 в произвольную степень.

Как мы все знаем, есть способ вычислить две последние цифры в процессе вычисления степени произвольных натуральных чисел, оканчивающихся на цифры 1, 5 и 6, по формуле Эйлера. Но мы не увидели в источниках об общей теории расчета количества компонент числа, образующегося при возведении числа 7 до произвольного порядка. В этой статье описывается общая теория, позволяющая вычислить количество цифр числа, образующегося при возведении числа 7 до произвольного порядка. Прошу вас обратить внимание на эти пары.

**1-пара**

$$\begin{aligned} 7^1 &= 7 \\ 7^2 &= 49 \\ 7^3 &= 343 \\ 7^4 &= 2401 \\ 7^5 &= 16807 \\ 7^6 &= 117649 \end{aligned}$$

**2-пара**

$$\begin{aligned} 7^7 &= 823543 \\ 7^8 &= 5764801 \\ 7^9 &= 40353607 \\ 7^{10} &= 282475249 \\ 7^{11} &= 1977326743 \\ 7^{12} &= 13841287201 \end{aligned}$$

**3-пара**

$$\begin{aligned} 7^{13} &= 96889010407 \\ 7^{14} &= 678223072849 \\ 7^{15} &= 4747561509943 \\ 7^{16} &= 33232930569601 \\ 7^{17} &= 232630513987207 \\ 7^{18} &= 1628413597910449 \end{aligned}$$

**4-пара**

$$\begin{aligned}7^{19} &= 11398895185373143 \\7^{20} &= 79792266297612001 \\7^{21} &= 558545864083284007 \\7^{22} &= 3909821048582988049 \\7^{23} &= 27368747340080916343 \\7^{24} &= 191581231380566414401\end{aligned}$$

**5-пара**

$$\begin{aligned}7^{25} &= 1341068619663964900807 \\7^{26} &= 9387480337647754305649 \\7^{27} &= 65712362363534280139543 \\7^{28} &= 459986536544739960976801 \\7^{29} &= 3219905755813179726837607 \\7^{30} &= 22539340290692258087863249\end{aligned}$$

**6-пара**

$$\begin{aligned}7^{31} &= 157775382034845806615042743 \\7^{32} &= 1104427674243920646305299201 \\7^{33} &= 7730993719707444524137094407 \\7^{34} &= 54116956037952111668959660849 \\7^{35} &= 378818692265664781682717625943 \\7^{36} &= 2651730845859653471779023381601\end{aligned}$$

**7-пара**

$$\begin{aligned}7^{37} &= 18562115921017574302453163671207 \\7^{38} &= 129934811447123020117172145698449 \\7^{39} &= 909543680129861140820205019889143 \\7^{40} &= 6366805760909027985741435139224001 \\7^{41} &= 44567640326363195900190045974568007 \\7^{42} &= 311973482284542371301330321821976049\end{aligned}$$

**8-пара**

$$\begin{aligned}
 7^{43} &= 2183814375991796599109312252753832343 \\
 7^{44} &= 15286700631942576193765185769276826401 \\
 7^{45} &= 107006904423598033356356300384937784807 \\
 7^{46} &= 749048330965186233494494102694564493649 \\
 7^{47} &= 5243338316756303634461458718861951455543 \\
 7^{48} &= 36703368217294125441230211032033660188801
 \end{aligned}$$

**9-пара**

$$\begin{aligned}
 7^{49} &= 256923577521058878088611477224235621321607 \\
 7^{50} &= 1798465042647412146620280340569649349251249 \\
 7^{51} &= 12589255298531885026341962383987545444758743 \\
 7^{52} &= 88124787089723195184393736687912818113311201 \\
 7^{53} &= 616873509628062366290756156815389726793178407 \\
 7^{54} &= 4318114567396436564035293097707728087552248849
 \end{aligned}$$

**10-пара**

$$\begin{aligned}
 7^{55} &= 30226801971775055948247051683954096612865741943 \\
 7^{56} &= 211587613802425391637729361787678676290060193601 \\
 7^{57} &= 1481113296616977741464105532513750734030421355207 \\
 7^{58} &= 10367793076318844190248738727596255138212949486449 \\
 7^{59} &= 72574551534231909331741171093173785967490646405143 \\
 7^{60} &= 508021860739623365322188197652216501772434524836001
 \end{aligned}$$

Если вы обратите внимание на приведенную выше таблицу, вы столкнетесь со следующей ситуацией: каждые 6 чисел считаются 1 парой. Когда мы возводим число 7, находящееся в 1-й паре, на 1-2-3-4-5- и 6-й уровни, то количество цифр образовавшихся чисел равны показателю степени числа 7, т.е.  $7^1 = 7$ ,  $7^2 = 49$  и т. д.  $7^6 = 117649$ . Когда мы возводим число 7, находящееся во 2-й паре, на уровни 7-8-9-10-11- и 12-й, то цифры в образовавшихся чисел оказываются на 1 меньше степени числа 7. Когда мы возводим число 7 в 3-й паре на 13-14-15-16-17- и 18-й уровни, цифры в образовавшихся чисел на 2 меньше степени числа 7 и т. д. Число 7 в 10-й паре это 55-56-57- При повышении на 58-59 и 60 уровни цифры в образовавшихся числах на 9 меньше степени числа 7. Из приведенных

выше результатов можно сделать следующие выводы.

При возведении числа 7 до степеней во всех парах, кроме 1-й пары, количество цифр полученного числа на 1 меньше увеличенных степеней.

100 степень числа 7 расположена в 17-й паре. Итак, если увеличить число 7 до степени 100, то количество цифр полученного числа будет равно  $84 \cdot 100 - (17 - 1) = 100 - 16 = 84$ .

**Список использованной литературы:**

1. Karimov Navro'zbek Abdurasul o'g'li, "OXIRGI RAQAMI 1, 2 VA 3 BO'LGAN SONLARNING KVADRATINI HISOBLASH FORMULALARI". Educational Research in Universal Sciences. ISSN: 2181-3515, VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2023. <http://erus.uz/index.php/er>

**MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI  
KUCHAYTIRISH, HARBIY XIZMACHILARNING OILASIGA  
BERILADIGAN IMTIYOZLAR HAQIDA**

*M.J.Karamov*

*O'zbekiston respublikasi IIV*

*2-sonli Toshkent akademiyasi CHQBT fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan tibbiy ta'minot sifatini yanada oshirish haqidagi chora va maqsadlarni o'rganib chiqish va yosh avlodga yetkazish

**Kalit so'zlar:** Mudofaa, harbiy, Qurolli Kuchlar, harbiy-vatanparvarlik, maqsad, chora.

**Аннотация:** исследование мер и задач по дальнейшему укреплению обороноспособности государства, повышению боеготовности Вооруженных Сил, ее возможностей и возможностей, социальной поддержке военнослужащих Вооруженных Сил и дальнейшему повышению качества оказываемой им медицинской помощи, а также просвещение. молодое поколение

**Ключевые слова:** Оборона, военные силы, Вооруженные Силы, военно-патриотизм, цель, мера.

**Abstract:** a study of measures and tasks to further strengthen the defense capability of the state, increase the combat readiness of the Armed Forces, its capabilities and capabilities, social support for military personnel of the Armed Forces and further improve the quality of medical care provided to them, as well as education. younger generation

**Key words:** Defense, military forces, Armed Forces, military patriotism, goal, measure.

90-maqsad: Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish.

Barcha bo'g'indagi hokimiyat organlari rahbarlarining qo'shinlar kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish, ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishini ta'minlash.

Harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabga aylanishiga erishish.

Mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish.

Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish.

Qurolli Kuchlarda yagona axborot-kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta'minlash.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o'quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish.

Fuqarolarning harbiy xizmatni o'tash tartibini yanada takomillashtirish.

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish.

Mudofaa vazirligi tizimida geraldika ishlarini samarali yo'lga qo'yish.

Qo'shnlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta'minlash.

91-maqсад: Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan tibbiy ta'minot sifatini yanada oshirish.

Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta'minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish.

Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalarida mavjud xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislar ish faoliyati samaradorligini oshirish.

92-maqсад: Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika maxsus qutqaruv markazini INSARAG (qidiruv-qutqaruv masalalari bo'yicha xalqaro maslahat guruhi) standartlari asosida tayyorgarlikdan o'tkazish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aviatsiya xizmatini tashkil etish.

Respublikaning turistik zonalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tezkor bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni tizimlashtirish.

Aholini favqulodda vaziyatlarda xabardor qilish tizimini modernizatsiyalash.

Respublikaning olis hududlarini professional va ko'ngilli yong'in-qutqaruv bo'linmalari bilan qamrab olish ko'rsatkichini yaxshilash.

Yong'in-texnik vositalarni ishlab chiqarishga xususiy sektorni jalb etish.

O'rmon yong'inlarini bartaraf etish tadbirlari samaradorligini oshirish.

93-maqсад: Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish.

Hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish.

Yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni kelishish.

Yirik tadbirlarda (xalqaro tashkilotlar doirasida va xorijiy hamkorlar bilan sherikchilik asosida hamda ikki tomonlama hamkorlik darajasidagi konferensiya, forum, seminar va davra suhbatlari) mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqyosidagi tashabbuslarini ilgari surish.

94-maqсад. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida (hukumatlararo komissiyalar, siyosiy maslahatlashuvlar, parlamentlararo hamkorlik komissiyasi va boshqalar) yig'ilishlarni tashkil etish.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini har yili muntazam tashkil qilishni ta'minlash va ularda faol ishtirok etish.

Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish ishlarini boshlash.

Mintaqaviy tashkilotlar doirasida O'zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish.

O'zbekiston Respublikasining chegaraoldi nazorat-o'tkazish punktlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish orqali ularning o'tkazuvchanligini oshirish.

Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari hamda arxivlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi kataloglarni birgalikda nashr etish.

Turizm sohasida yangi voqelik va epidemiologik talablarni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish.



Markaziy Osiyo davlatlarida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi muxbirlik punktlarini ochish.

O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi (YI) institutlari bilan savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik shakllarini qo‘llab-quvvatlash.

95-maqсад: An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish.

Oliy darajadagi tashriflar orqali Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chet ellarda mamlakatimizning yangi diplomatik vakolatxonalarini ochish.

Milliy manfaatlarni ilgari surish va himoya qilishda iqtisodiy diplomatiya samaradorligini oshirish va uni faollashtirish.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi an’anaviy strategik sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirish (Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya).

Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

AQSh, Kanada va Amerika mamlakatlari bilan strategik va har tomonlama hamkorlik aloqalarini kengaytirish.

AQSh ishbilarmon doira vakillari bilan investitsion, eksport va ilg‘or texnologiyalar sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mintaqasidagi hamkorlar bilan mavjud aloqalarni yanada kengaytirish (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron).

Arab davlatlari (BAA, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Misr) bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida o‘zaro hamkorlikni jadallashtirish.

O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali munosabatlarini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish.

Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

MDH mamlakatlari doirasidagi an’anaviy strategik sheriklar bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish.

MDH mamlakatlarining istiqbolli bozorlariga eksport hajmi va nomenklaturasini oshirish.

96-maqсад: O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish.

O‘zbekistonni BMT tuzilmalari orqali dunyo hamjamiyatiga keng tanitish.

O‘zbekiston Rahbariyatining BMT doirasidagi tashabbuslarini amalga oshirishni ta’minlash.

BMT va uning muassasalari bilan iqtisodiy-moliyaviy va konsultativ hamkorlikni rivojlantirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan madaniy-gumanitar hamkorlikni jadallashtirish.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari doirasida o‘tkaziladigan siyosiy-diplomatik va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari miqyosini kengaytirish.

BMTning “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish.

97-maqсад: Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish.

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish.

O‘zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.

O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining metallurgiya, to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta’sirini o‘rganish.

O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish.

Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan eksportni qo‘llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish.



1992-yil 14-yanvardan O‘zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalar O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o‘tkazilgani munosabati bilan 1993-yil 29-dekabrda 14 yanvarni «Vatan himoyachilari kuni» etib belgilashga oid qonun qabul qilingan.



### **Harbiy xizmatchilarning oilalariga beriladigan imtiyozlar:**

Turmush o'rtog'i yoki ota-onasi harbiy xizmat o'tash joyini o'zgartirganda talabalar o'qishini ko'chirish bahorgi semestrda o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin.

O'n to'rt yoshga to'lmagan bitta yoki undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolani) tarbiyalayotgan muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga ta'til ularning xohishiga ko'ra, yozgi yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtda beriladi.

Harbiylikka qachongacha o'qish mumkin?

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari lavozimlariga qabul qilinishdagi yosh senzlari 17 yoshdan 23 yoshgacha (ilgari 21 yoshgacha bo'lgan) etib belgilangan. Shuningdek, 26 yoshgacha bo'lgan va oliy harbiy ta'lim muassasalarida aloqa muhandis texnigi va harbiy-tibbiyot ixtisosligi bo'yicha o'qish istagini bildirgan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining talabalari oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari lavozimlariga o'qishga qabul qilinishlari to'g'risidagi norma mavjud.

Tizimda yosh chegarasi bor

Qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegaralari alohida belgilangan. Unga ko'ra:

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar (matroslar), serjantlar (starshinalar) uchun - 45 yosh;
- kichik ofitserlar uchun - 45 yosh;

- katta ofitserlar uchun - 50 yosh;
- polkovniklar (1-darajadagi kapitanlar) uchun - 55 yosh;
- general-mayor, general-leytenant va general-polkovnik harbiy unvonidagi ofitserlar uchun - 60 yosh.

Ko'p xizmat uchun ko'proq ta'til

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning har yilgi navbatdagi ta'tillariga qo'shimcha tarzda, xizmat yillarining kalendar hisobiga ko'ra:

- 10 yillik harbiy xizmatdan so'ng davomiyligi 5 sutkalik;
- 15 yillik harbiy xizmatdan so'ng davomiyligi 10 sutkalik;
- 20 yillik va undan ko'p harbiy xizmatdan so'ng davomiyligi 15 sutkalik qo'shimcha ta'til beriladi.

Harbiy xizmatdan bo'shatilayotgan vaqtda kamida yigirma kalendar yili mobaynida harbiy xizmatni benuqson o'tagan ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga tegishli buyruqlar bilan harbiy formani kiyish va farqlovchi nishonlarni taqish huquqi beriladi.

Bepul tibbiy ta'minot

Katta ofitser va generallar tarkibi bilan bir qatorda rezervga (iste'foga) bo'shatilganidan (chiqarilganidan) so'ng harbiy-tibbiy muassasalardagi bepul tibbiy ta'minotdan foydalanish huquqi xizmat yillarining umumiy davomiyligi 20 yil va undan ortiq bo'lgan kichik ofitserlar, serjant va oddiy askarlar tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Harbiy xizmatni yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro ob'yektlarida o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish huquqiga ega.

Yashab turgan uyiga umrbod egalik

Turar joy bilan ta'minlanmagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga kiruvchi shaxslarga amaldagi sarf-xarajatlar doirasida (kommunal xizmatlar haqi bundan mustasno):

- Toshkent shahrida — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha;
- Nukus shahrida va viloyatlar markazlarida — BHM 3 baravarigacha;
- boshqa shahar va tumanlar markazlari hamda aholi punktlarida — BHMning 2 baravarigacha miqdorda to'lanadi.

Oila a'zolari uch kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda (harbiy xizmatchining o'zini hisoblamagan holda) ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foizga oshiriladi.

Haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan (rezervga, iste'foga bo'shatilgan) kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar harbiy xizmatining umumiy davomiyligi 10 va undan ortiq kalendar yilga yetganda uy-joy qonunchiligida ko'zda tutilgan me'yor va tartiblarga muvofiq, o'zlari egallab turgan turar joylarini bepul xususiylashtirib olish huquqiga ega.

### Boshlang'ich badalsiz ipoteka krediti

Uy-joy bilan ta'minlanmagan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga ularning arizasiga binoan uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditini berish tizimi bo'yicha taqdim qilinayotgan ijtimoiy normasi doirasida sotib olinadigan (quriladigan) turar joy qiymatining 25 foizi miqdoridagi dastlabki badal davlat byudjeti mablag'lari yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanishi mumkin.

### Bog'chaga navbatsiz qabul

Harbiy xizmatchilarning farzandlari yashash joyi, shu jumladan, vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari va o'rta ta'lim muassasalari, shuningdek, vazirlikning bolalar sog'lomlashtirish lagerlariga navbatsiz qabul qilinadi.

Ya'ni, bog'chada bo'sh o'rinlar mavjud bo'lganda harbiy xizmatchilarning bolalariga birinchi navbatda yo'llanma beriladi.

### Bepul yo'lovchi transporti

Haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo'yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar shahar yo'lovchi transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega.

Yarador bo'lgan harbiy xizmatchilar, ishchilar va xizmatchilardan 1 va 2-guruh urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga temir yo'llarda yiliga bir marta bepul yurish huquqi (borish va kelishga) taqdim qilingan.

**Xulosa:** Yosh avlodni harbiy yo'nalishga qiziqirish uchun ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi-da, ularni harbiylarga beriladigan imtiyozlarva ularning xizmat vazifalari bilan tanishtirilib borilishi keak.

### **Adabiyotlar ruyxati:**

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi. 2018-yil 12-fevralda 1217-sonli guvohnoma bilan ro'yxatdan o'tgan.

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.01.2020-y., 10/20/3215/0119-son;

**MAVSUMIY KASALLIKLARNING DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI***Dildora Daminova Erkin Qizi**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**Davolash ishi yo'nalishi 505-guruh (B) talabasi**Bolalarda yuqumli kasalliklar**+998999404966***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bolalar orasida uchraydigan keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgan qizamiq kasalligi, yuqush yo'llari, kasallikni davolash hamda oldini olish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizamiq, bolalar kasalligi, virus, infeksiya, laringotraxeobronxit, immunitet, kasallik

**KIRISH**

Qizamiq – bu o'tkir yuqumli virusli kasallikdir. Qizamiq yer kurrasida eng keng tarqalgan infeksiya bo'lib, toshma toshadigan va jiddiy asoratlarni qoldiradigan yuqumli kasalliklarning eng tez yuqadiganidir. Agar qizamiq bo'lmagan yoki emlanmagan kishi kasal odam bilan muomala qilsa, qizamiqning yuqish ehtimoli 100 foizga yaqinlashib qoladi. Qizamiqqa chalinish mumkin bo'lgan holat. Qizamiq 2,5 yashar bolalarga ham, kattalarga ham yuqadi. Biroq so'nggi yillarda bu kasallikning o'smirlar va kattalarda uchrashi keskin kuchaygan.[1]

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda onalaridan o'tgan tug'ma immunitet bo'ladi. Agar ona ilgari qizamiq bilan og'rigan bo'lsa va unda immunitet hosil bo'lgan bo'lsa, bola bir yoshga yetguncha, ayniqsa, ona sutini emayotgan bolalar ona immuniteti bilan himoyalangan bo'ladi. Bunday bolalar qizamiqni oson o'tkazadi va shundan so'ng ularda qizamiqqa qarshi mustahkam immunitet hosil bo'ladi. Qizamiq ko'pchilik hollarda dekabr-may oylari davomida uchraydi. Qizamiq havo-tomchi yo'li orqali yuqadi.[2]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Qizamiqning virusi tashqi muhitga bemor kishi aksa urganda, yo'talganda va so'zlashganda yuqori nafas yo'llaridan so'lak tomchilari bilan birga chiqadi. Qizamiq virusi tashqi muhitda ikki soat davomida saqlanishi mumkin, shuning uchun u ikki soat avval bemor kishi o'tirgan xonaga kirgan sog'lom odamga ham yuqib qolishi mumkin. Qizamiqqa chalingan kishi toshma toshishidan 2-4 kun oldin yuqumli va kasallik o'tkir kechadigan davri davomida infeksiya manbai bo'lib qolaveradi. Inkubatsiya davri o'rtacha ikki hafta davom etadi.

Bu davr 7 kundan 28 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning 5-6 kuniga kelib, uning virusi og'iz-halqum bo'shlig'idan qonga o'tadi va organizmning barcha organlari va to'qimalariga tarqaladi. Qizamiq virusi ko'proq nafas olish tizimi, oshqozon va markaziy asab tizimi to'qimalarini zararlaydi. Toshma. Toshma kasallikning uchinchi kunida paydo bo'ladi va keyingi uch kun ichida butun tanaga tarqaladi, so'ng uch kun ichida biroz dog'lar qoldirib, yo'qolib ketadi. Qizamiqning asoratlari. Qizamiqning eng xavfli jihati – uning asoratlaridir.[3]

Uning asoratlari qatoriga laringit (halqumning o'tkir yallig'lanishi), laringotraxeobronxit (nafas yo'llarining infeksiyasi), pnevmoniya (o'pkaning yallig'lanishi), otit (o'rta quloqning yallig'lanishi), tepki, bosh miyaning yallig'lanishi (ensefalit), miokardit (yurak mushaklarining yallig'lanishi) kiradi. Qadimda momolarimiz qizamik bo'lgan odamga qizil ko'ylak kiydirishgan va bu davoning bir turi ekaniga ishonishgan. Bugungi kunda ham mazkur irim saqlanib qolgan. Ammo zamonaviy tibbiyotda kasallikdan faqat o'z vaqtida emlatish orqali himoyalanish mumkin, deb tavsiya qilinadi.

Qizamiq bilan og'rigan bemorlarning qorong'iroq xonada tinch yotishlarini ta'minlash zarur (kon'yunktivida o'tkir yorug'lik kuchli og'riq beradi). Og'iz choy sodasining eritmasi bilan chayqab turiladi, asoratlarning oldini olish uchun ko'zlarga sulfasil va boshqa antibakterial tomchilar tomizib turiladi. Pnevmoniya yoki boshqa bakterial asoratlar rivojlangan taqdirda antibiotiklar qabul qilish tavsiya etiladi. Kasallikning oldini olish va davolash uchun katta dozalarda A vitaminidan foydalanish mumkin. Bugungi kunda qizamiqdan asorat qolmasligi va hatto o'lim holatlari vujudga kelmasligi uchun ko'pgina mamlakatlarda qizamiqqa qarshi majburiy profilaktik emlashlar joriy qilingan. Emlashdan so'ng hatto kasallik yuqqa taqdirda ham u asoratsiz, yengil shaklda kechadi.[4]

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

